



O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI KARRA IKKI BESH” QISSASIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI

Shodiya Hamdamova,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti 2-kurs magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207328>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Ikki karra ikki besh” qissasida bola ruhiyati tasviri, ichki olami, xarakteri tahlili, badiiy psixologizmi tahlil etilgan. Tahlilda bolalar ruhiyatiga xos jihatlar, bolalar psixologiyasi, uning badiiy talqini haqida hamda ijtimoiy muhitning bola ruhiyatiga ta’siri haqida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kulgi, bola psixologiyasi, yumor, chechanlik, himoya instinkti, ijodkor ruhiyati va bola ruhiyati mushtarakligi, ijtimoiy muhit va bola ruhiyati.*

Psixologlar ta’kidlashicha, har bir bola o‘ziga xos xislatlarga va bir-biridan farqli qarashlarga ega, lekin ulardagi mushtarak xislat o‘yin qarolik va beg‘uborlikdir. Shuning uchun bolalar psixologiyasida va adabiyotida yumor yetakchi vosita vazifasini o‘taydi.

Umuman olganda, o‘zbek adabiyotida hajviyot, yumor muayyan ahamiyat kasb etgan. Chunki adabiyot inson hayotining in’ikosi sifatida odamzod turmushining kulgili jihatlarini aks ettirmasligi, insondagi illatlarni tanqidiy yo‘sinda tasvirlamasligi mumkin emas.

XX asr boshlarida kulgining mohiyati haqida fikr yuritgan yozuvchilardan Qodiriy kulgi tarixiga nazar tashlar ekan quyidagilarni yozadi: *“Kulgilikning boshlanish tarixi juda eskidir. Kulgilik insonlar bilan birga tug‘ilgan, uning boshqa xususiyatlari, ya’ni kamolot va ruhiy holatlari ila yondoshdir. Shuningdek, biz o‘zbeklarning kulgiligimiz ham o‘z tarixini eskidan boshlaydi. Har bir narsaning tug‘ilish tarixiga nazar tashlab ko‘riladirkim, ul ibtidoiy davrda, albatta, bir ehtiyoj orqalik dunyoga keladi”*. [8, 184-bet]

Qodiriy ta’kidlashicha, ayni shu ehtiyojning kelib chiqish sabablari bor edi. Kulgi Yaratganning odamlarga ato etgan ulug‘ inoyatlaridan biridir, u insondagi aql va ruh bilan chambarchas bog‘liqdir va ayni shu jihatlari bilan inson boshqa mavjudotlardan farqlanib turadi. Aristotelning fikricha, chaqaloq faqat tug‘ilganining qirqinchi kunidan kula boshlar va shu daqiqalardan boshlab, u shaxsga aylanish davriga qadam tashlar ekan. Demak, kulgi nafaqat bizni o‘rab turgan borliq va jamiyatni anglashning o‘ziga xos usuli, balki o‘zlikni anglashning ham bir yo‘lidir.



Insoniyat yaralibdiki, kulgi insonga doimo hamroh bo‘lgan desak, yanglishmaymiz. Rivoyat qilishlaricha, Odam Ato Momo Havoga muhabbat izhor qilganlarida Momo havoning qalbi sevinchga to‘lib, chehrasida tabassum barq uradi. Bu insonning ilk kulgisi ekan. Shundan beri kulgi mehr va sevinch in’ikosi bo‘lib, umumbashariyatga xizmat qilmoqda.

Mutaxassislar badiiy asardagi kulgini ikki yo‘nalishga ajratadilar: satira va yumorga. Satira so‘zi yunoncha turli, aralash degan ma’nolarni ifodalab, badiiy asarda keng ma’noda kishilardagi yoki ma’lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladi.

Yumor so‘zi ingliz tilidagi namlik, suyuqlik so‘zidan olingan bo‘lib, u keng ma’noda badiiy adabiyotda yengil kulgi qo‘zg‘ash, hazil-mutoyiba sifatida qo‘llaniladi. Bunda ijodkor ayrim kamchiliklar ustidan kinoya-kesatiqsiz do‘stona, xayrixohlik bilan kuladi. Voqea-hodisalarning, insonlarning hech bir nuqsonsiz bo‘lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik, hazil-askiya bilan munosabat bildiriladi.

XX asr o‘zbek adabiyotida A.Qodiriy, Fitrat, Ayniy, Hamza boshlab bergan mavzularni G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad kabi ijodkorlar davom ettirdilar. Bu ijodkorlarning safiga biz O‘tkir Hoshimovni ham kiritishimiz mumkin. Adibning “Ikki karra ikki besh” qissasi ham yumorga asoslangan qissalardan biridir. Asardagi bola qahramon tilidan hikoya qilingan kulgili voqealar hech bir o‘qirmanni bolalarcha sof kulgi va quvnoqlikdan bebahra qoldirmaydi:

“O‘qituvchi opa yana yig‘lamoqdan beri bo‘lib kuldi.

-Shunaqa deng... Mayli. Mavjuda qizimiz pishiq, - dedi onamga. – A‘lo o‘qiyapti. – Keyin mendan so‘radi. – Boshqa singillaring ham bormi?

-Bor. O‘nta!

O‘qituvchi opamning pastki labi osilib ketdi. Og‘ir-og‘ir kiprik qoqib, onamga uzoq tikilib qoldi. Chamasi, to‘qqiz yilda o‘n ikkita bola tug‘gan xotinni birinchi marta ko‘rib turgan bo‘lsa kerak.

Onam dumbamni chimchilashdan ish chiqmasligini payqadi, shekilli, biqinimni o‘ymalab oldi. Qitig‘im kelganida hiringlab kulib yubordim. O‘qituvchi opa goh onamga, goh menga qarab, qisqa-qisqa nafas ola boshladi”.[2,13-14-bet]

Bolalar ruhiyatida yumorning o‘ziga xos sabablarini shunday izohlash mumkin: bola o‘zi tushib qolgan vaziyatdan qutulish, o‘z aybini yopish, o‘z galar va o‘zi oldida o‘zini oqlash, og‘ir ahvolda o‘ziga taskin berish uchun yumor ishlatadi. “Ikki karra



ikki besh” qahramoni Qo‘shoqvoyda ham yumordan ko‘p hollarda o‘ziga taskin berish maqsadida foydalanilgan:

“...Televizorda ko‘rsatadigan suvga sho‘ng‘uvchilar bor-ku, o‘shanga o‘xshab loyxandaqqa kalla tashlab tushyapman. Oyoq-qo‘llarimni juftlab olganman, deng. Hali tushyapman, hali tushyapman, qani loyxandaqqa yetsam! Bir mahal “sho‘lq” etgan ovozni o‘zim ham eshitgandek bo‘ldim. U yog‘i esimda yo‘q. Keyin aytib berishdi. Loyxandaqning qoq o‘rtasiga boshim bilan sanchilib qolibman. Dadam ishga qiziqib ketib sezmadim. Hatto bir-ikki marta ketmonning orqasini juftlashib turgan oyog‘imga qoqib, loyini tozalabdi. Qoziq deb o‘ylagan-da! Anchadan keyin charchab “perekur” qibti. Nosqovog‘ini tovonimga urib-urib, tagidagi yopishib qolgan nosini ko‘chirmoqchi bo‘lgan ekan, qitig‘im kelib, oyog‘imni tipirlatib qolibman. Qitig‘im yomon-da! Otam turgan joyida taxta bo‘pqopti. Hamma yoq qiy-chuv bo‘lib ketibdi. Ko‘plashib loyxandaqdan sug‘urib olishibdi. Yuvib-tarab, munday qarashsa, boshim tars yorilib ketganmish. Men bo‘lsam yig‘lash o‘rniga kularmishman. To‘g‘risini aytaymi? O‘shandan beri hech yig‘lamaganman. Nuqul kulaman. O‘shandayam onam “Voy, bolajonim, senga nima bo‘ldi”, deb yig‘laganida kulib turaveribman. Sal-pal esimda bor, negadir o‘shanda onam ko‘zimga ikkita bo‘lib ko‘rindi. Ovozi bitta-yu, o‘zi ikkita”. [2,9-bet]

Yiqilib tushish jarayonini suvga sho‘ng‘uvchilarga o‘xshatgan Qo‘shoqvoy uni qo‘rqinchli, og‘ir holat deb hisoblamay, xuddi bir mashg‘ulot kabi ko‘radi. Yana bu jarayonni yumor sifatida tasvirlab, yiqilib tushish joyiga hech yeta olmayotganini, yetganda yiqilib tushishini ham yengilgina ifodalashi o‘ziga berilgan dalda, taskinning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Aslida biz uchun qo‘rqinchli yoki og‘ir bo‘lgan jarayonlar bolalar nigohida oddiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki ularda hali qo‘rquv hissi to‘la shakllanmagan bo‘ladi. Ular sodir bo‘layotgan yomon yoki og‘ir hodisalarga shunday bo‘lishi kerak va bu oddiy hodisadek anglashadi.

Bolalar adabiyotida ham yumorning ijtimoiy tabiati mavjuddir. “Ikki karra ikki besh” qissasi qahramoni Qo‘shoqvoy ham jamiyat va odamlar orasida tasvirlanadi. Bu esa qahramon ruhiyatini ochib berishda xizmat qilgan yumorning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishini ifodalaydi. Yozuvchi Qo‘shoqvoydagi qo‘shish va ko‘paytirishni yoqtirishidan asarni boshlagani bejiz emas. Bu aslida o‘sha davr jamiyatida qo‘shib yozish kabi jirkanchli ishning urchib ketganligiga ishora qiluvchi vosita vazifasini o‘tagan. Rais, Raykom, Obkom kabi yuqori lavozimda ishlovchi insonlarga aynan “ikki karra ikki to‘rt” degan emas, “ikki karra ikki besh” degan insonlar ma‘qul kelar, xalqni aldovchi, ko‘zbo‘yamachilikka usta odamlar bilan

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



ishlash ayni muddao edi. Hisobni to‘g‘ri hisoblovchi, halol, to‘g‘riso‘z insonlar esa Rais kabi insonlar tarafidan siqib kelingan, novijdonan ishlashga majburlangan.

Shuningdek, bolalarda chechanlik va u orqali qiyin vaziyatlardan chiqib keta olish xususiyati ham ko‘zga tashlanadi. Bu xususiyat haqida U.Jo‘raqulov Freyd nazariyasi asosida yumorning bolaga xos xususiyatini shunday tahlil qiladi: *“Chechanlik va uning ongsizlikka munosabati” Freydning bivosita adabiy manbalar, ijodiy jarayonlar jarayonlar tahlili orqali yozilgan muhim tadqiqoti hisoblanadi*”. [6,59-bet] U.Jo‘raqulov fikricha, Freyd chechanlikning mohiyatini kulgidan olinadigan qoniqish hissida emas, balki kulgi orqali yuzaga chiqadigan ong osti istaklarining g‘alaba qilishida, deb tushuntiradi. U.Jo‘raqulov ushbu fikrlar tahlili sifatida qiziq misollar keltiradi; *“Shuningdek, chechanlikda ham tushdagi kabi ma’nisizlik va ziddiyatlilik hukm suradi. Buni tushunish uchun uzum o‘g‘irlashga kirgan afandining uzumzor egasiga nisbatan chechanligini eslash kifoya. Bu mashhur latifaga ko‘ra, bironing bog‘iga uzum o‘g‘rilashga tushgan afandini bog‘ egasi tutib oladi va unga “Nega bironing uzumini o‘g‘irayapsan?” deya o‘shqiradi. Shunda afandi bog‘ egasiga: “Nega xotiningga kalish olib bermading?” deb javob bergan ekan. Bu o‘rinda afandining javobida ma’no yo‘q. Ammo, ayni bema’ni javob orqali u o‘zini himoya qila oladi. Favqulodda kontrast, garchi haq bo‘lsa ham, bog‘ egasini bir lahza dovdiratib qo‘yadi*”. [6,60-bet]

Asar qahramoni Qo‘shoqvoyda ham biz chechanlikni ko‘rishimiz mumkin. Bu xususiyatdan u ko‘pincha vaziyatdan chiqib ketish holatlarida foydalanadi. Oysara yangasinikiga pat-pat minishni rejalashtirib kirib borgan Qo‘shoqvoy Rais buvaga yo‘liqadi. Rais buvaning vajohatidan shoshib qolgan Qo‘shoqvoy vaziyatdan chiqib ketish uchun chechanlik bilan savollarga javob qaytaradi. Va bu vaziyatda rost bo‘lmasa ham Tursunboy akasi bilan kelganini qo‘shib tushib qolgan holatini yumshatadi. Umuman olganda, bu vaziyatda unga faqatgina tezkorlik bilan qilingan javobgina qo‘l kelardi. Bu usul unga yordam berganini anglagan Qo‘shoqvoy Rais buva tomonidan berilgan atlasni Oysara yangasiga olib kelib bergan holatida ham qo‘llaydi. Vaziyatning ustiga kelib qolgan Tursunboy akasi uning qo‘lidagi nima ekanligini so‘raganida atlas deb javob beradi. Shu jarayonda noto‘g‘ri javob berganini anglagan Qo‘shoqvoy yana gapga chechanlik bilan uning geografiya atlasini ekanligini va imtihonga kerak ekanligini aytib vaziyatdan chiqib ketadi.

“Ikki karra ikki besh” qissasi qahramoni Qo‘shoqvoy ham uning yaratuvchisi, ijodkori singari samimiy, beg‘ubor, rostgo‘y bola. U har qanday narsaga ishonadi, unga nisbatan aytilgan har qanday gapni to‘g‘ri ma’noda tushunadi va qabul qiladi.



Uning dunyosida yolg‘on va yashirin sirlarga, nosamimiy munosabatlarga, kinoyali gaplarga o‘rin yo‘q. Umuman olganda, poklik, beg‘uborlik va samimiyatni butun hayoti davomida saqlab qolgan bola va bola qalb obraz Qo‘shoqvoydir. Zero, bolaga xos bo‘lgan eng muhim xislat ham aynan shulardir.

Bir so‘z bilan aytganda, “Ikki karra ikki besh” qissasida yozuvchi hajviy usulda dramatism va insonlar o‘rtasidagi turli munosabatlarni tasvirlaydi. Bunda adib personajlar ichki dunyosida kechayotgan nozik psixologik jarayonlarni mahorat bilan real chizgilar orqali qalamga oladi. Adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulov yozuvchi ijodining muhim xususiyatlari sifatida ikki jihatni keltiradi: *“Birinchidan, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida shunchaki targ‘ibot qilish yoki shoirlar keltirish yo‘lidan bormaydi. Balki davrning eng dolzarb muammolarini o‘rtaga tashlaydi va bu muammolarga qahramonlarning harakatlari, o‘y-kechinmalari vositasida javob izlaydi. Ikkinchidan, adib bu jarayonlarni ajoyib badiiy shakllarda aks ettiradi”*. [1,225-bet]

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, O‘tkir Hoshimov uslubidagi o‘ziga xoslik asarda didaktizm asosidagi rivoyatni keltirish an‘anasidir. Asardagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishdagi eng maqbul obraz bola fenomenidir. Yuqorida tahlil qilgan asarimiz ham aynan shu uslubdagi asarlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodiq S. Yangi o‘zbek adabiyoti. Toshkent: O‘zMU. 2018
2. Hoshimov O‘. Ikki karra ikki besh. Nurli dunyo nashriyot uyi. 2023.
3. Mallayev N. Navoiy va xalq ijodiyoti. Toshkent. 1974.
4. Muhammediyev R. Askiya. Toshkent, 1970.
5. Nazarov M. Yumor nima? O‘zbekiston adabiyoti va sa‘nati. 1086-yil, 8-son.
6. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – T., “Yangi asr avlodi”, 2006
7. To‘laboyeva R. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm. Filol. fan. nomz... diss. – T., 2020